

KASBIY TAYYORGARLIK VA MALAKA OSHIRISH KURSLARI ORQALI MIGRANTLARNING BANDLIGINI TA'MINLASH METODIKASI

Qo'ldasheva Maxmuda Nurmatjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ***kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari orqali migrantlarning bandligini ta'minlash metodikasi*** ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Unda mehnat migratsiyasi jarayonida fuqarolarning raqobatbardosh kasb va ko'nikmalarga ega bo'lishi, xorijiy mehnat bozorining talablariga mos tayyorlanishi, shuningdek, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalari tahlil etiladi. Maqolada xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda tayyorlov kurslarini tashkil etish, malakani xalqaro standartlarga mos sertifikatlash tizimini joriy etish, migrantlarni onlayn platformalar orqali ish bilan ta'minlash mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish, mehnat migratsiyasi, bandlik, xalqaro standartlar, onlayn platformalar, metodika.*

МЕТОДИКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ МИГРАНТОВ КУРСАМИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотация. В данной статье научно-практическое освещение методики обеспечения занятости мигрантов курсами профессиональной подготовки и повышения квалификации. В нем анализируются вопросы приобретения гражданами конкурентоспособных профессий и навыков в процессе трудовой миграции, их подготовки в соответствии с требованиями зарубежного рынка труда, а также усиления их правовой и социальной защиты. В статье рассматриваются механизмы организации подготовительных курсов совместно с зарубежными работодателями, внедрения системы сертификации квалификации в соответствии с международными стандартами, трудоустройства мигрантов через онлайн-платформы.

Ключевые слова: профессиональное обучение, повышение квалификации, трудовая миграция, занятость, международные стандарты, онлайн-платформы, методология.

METHODOLOGY FOR ENSURING EMPLOYMENT OF MIGRANTS THROUGH VOCATIONAL TRAINING AND SKILLS DEVELOPMENT COURSES

Annotation. This article covers the methodology for ensuring the employment of migrants through vocational training and advanced training courses in a scientific and practical way. It analyzes the issues of obtaining competitive professions and skills of citizens in the process of labor migration, their preparation in accordance with the requirements of the

foreign labor market, as well as strengthening their legal and social protection. The article covers the mechanisms of organizing preparatory courses in cooperation with foreign employers, introducing a system of certification of qualifications in accordance with international standards, employment of migrants through online platforms.

Key words: professional training, professional development, labor migration, employment, international standards, online platforms, methodology.

KIRISH

Globallashuv jarayonida mehnat migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Migrantlarning xorijiy davlatlarda munosib mehnat qilishlari, ijtimoiy muhofazasi va huquqlarini himoya qilishda ularning kasbiy tayyorgarligi va malaka oshirish kurslarida ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois migrantlarni tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari orqali migrantlarning bandligini ta'minlash masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ular asosan uch yo'nalishda tahlil qilinadi:

1. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, migrantlarning mehnat bozoridagi o'rni, huquqiy muhofazasi haqida xalqaro tashkilotlar (XMT, Jahon banki, IOM) hamda mahalliy olimlarning tadqiqotlari mavjud. Bu adabiyotlarda migrantlarning malaka darajasi bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Masalan, Sh. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida migratsiya jarayonlarini tartibga solish, malakali kadrlarni xorijiy mehnat bozoriga tayyorlash masalasi alohida qayd etilgan.

2. Pedagogika va kasb-hunar ta'limi bo'yicha adabiyotlarda o'quv dasturlarini modullashtirish, qisqa muddatli kurslar orqali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish samarali yo'l ekanligi ta'kidlanadi. J. Dewey, D. Kolb kabi pedagog va psixologlarning ta'lim jarayonida tajriba va amaliyotga asoslangan yondashuvlari migrantlarni tayyorlash jarayonida ham qo'llanilmoqda.

3. Interfaol metodlar (keys-stadi, rol o'yinlari, trening mashg'ulotlari) migrantlarning til bilimi va kommunikativ ko'nikmalarini oshirishda samarali vosita

sifatida tavsiya etiladi. Amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti asosida shakllangan metodikalar migratsiya uchun tayyorlanayotgan kishilarni real mehnat sharoitlariga moslashtiradi. Shuningdek, tahlil etilgan manbalarda davlat, ta'lim muassasalari va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi migrantlarning barqaror bandligini ta'minlashning eng muhim sharti sifatida ko'rsatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Malaka oshirish kurslari orqali migrantlarning bandligini ta'minlashda kasbiy tayyorgarlikning migrantlarni xorijda talab yuqori bo'lgan kasblarga yo'naltirish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda til, madaniyat va huquqiy bilimlar bo'yicha tayyorlash muhim masalalardan biri sanaladi. Bunda birinchi navbatda zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish, modulli o'quv dasturlari orqali qisqa muddatli kasbiy malaka berish hamda xorijiy mehnat bozori talablari asosida kasblar ro'yxatini shakllantirish hisoblanadi. Bu jarayonda metodik yondashuvlar quyidagi jihatlariga e'tibor qaratgan holda amalga oshiriladi:

- interfaol metodlar: rol o'yinlari, keys-stadi, muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- amaliy mashg'ulotlar: ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tash;
- individual yondashuv: migrantning yosh, tajriba va kasbiy qiziqishlarini inobatga olishdan iborat.


Migrantlarni kasbiy malakalarini rivojlantirishda metodik yondashuvlar bilan bir qatorda bandlikni ta'minlash mexanizmlarini ham ishlab chiqish tavsiya etiladi. Xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda tayyorlov kurslarini tashkil etish, ya'ni mehnat migratsiyasiga chiqishni rejalashtirayotgan fuqarolar uchun xorijda talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha amaliy va nazariy tayyorgarlikni yo'lga qo'yish, o'quv jarayonini bevosita ish beruvchilarning ehtiyojlari va talablariga mos holda tashkil etish, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda o'quv dasturlarini boyitish;

Sertifikatlash va malakani xalqaro standartlarga moslashtirish, ya'ni o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarni xalqaro miqyosda tan olinadigan hujjatlar bilan tasdiqlash tizimini yaratish, kasbiy malaka darajasini xalqaro

tasniflar (masalan, ESCO yoki ISCO) asosida belgilash, shu orqali ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish;

Migrantlarni onlayn platformalar orqali ish bilan ta'minlashga ko'maklashish, ya'ni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida xorijiy ish beruvchilar va mehnat migrantlarini bog'lovchi yagona elektron tizimni yaratish, masofadan turib ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish, axborot almashinuvi va huquqiy maslahat xizmatlarini onlayn shaklda taqdim etish.

Migrantlarni kasbiy malakalarini rivojlantirishda bandlikni ta'minlash mexanizmlarini qo'llash natijasida quyida samaradoslik kuzatiladi (1-rasm):



Xullas, ushbu mexanizmlar mehnat migrantlarini kasbiy, huquqiy va raqamli jihatdan har tomonlama tayyorlash, ularning xorijiy mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Migrantlarning bandligini ta'minlashda kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslarining o'рни juda muhimdir. O'rganilgan adabiyotlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki:

- kasbiy tayyorgarlik tizimi. Migrantlarni xorijda talab yuqori bo'lgan kasblarga yo'naltirish, qisqa muddatli amaliy kurslar orqali ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Chunki, migrantlarning xorijiy mehnat bozoriga moslashuvi ularning kasbiy tayyorgarligi va malaka darajasiga bevosita bog'liq
- malaka oshirish kurslari. Nafaqat yangi bilim va ko'nikmalar beradi, balki mavjud kasbiy salohiyatni zamonaviy talablar asosida yangilash imkonini yaratadi. Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari samarali metodika asosida tashkil etilganda, migrantlarning barqaror bandligi va ijtimoiy muhofazasi ta'minlanadi.
- interfaol metodlar. Keys-stadi, rol o'yinlari, amaliy mashg'ulotlar migrantlarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlardan chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sertifikatlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish migrantlarning huquqiy himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladi
- til va huquqiy bilimlar. Migrantlarning xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini qonuniy va samarali yo'lga qo'yishida alohida ahamiyat kasb etadi. Migrantlarni tayyorlash jarayonida davlat idoralari, ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlari va xorijiy ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik asosiy omil hisoblanadi.
- xalqaro tajriba. Rivojlangan davlatlarda migrantlarni kasbiy tayyorlash bo'yicha sertifikatlash va dual ta'lim tizimi keng qo'llaniladi, bu esa O'zbekistonda ham amaliyotga joriy etilishi zarurligini ko'rsatadi. Kurslarning mazmuniga til, huquqiy asoslar, madaniy kompetensiya, axborot texnologiyalari bo'yicha bo'limlarni kiritish ularning samaradorligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslari migrantlarning xorijiy davlatlarda barqaror bandligini ta'minlashning muhim omilidir. Bu jarayonda davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari hamkorligi asosida kompleks metodika ishlab chiqilishi, migrantlarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5286-son Qarori. Toshkent, 2022 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent: Adolat, 2023.
3. Xolmurodov A, Qodirova M. Mehnat migratsiyasi jarayonida kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish tizimi. Toshkent. Fan va texnologiya. 2021.
4. Karimov, B. Migrantlar bandligini ta'minlashda innovatsion yondashuvlar. *Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*. 2022, №4, 45–52-betlar.
5. International Labour Organization (ILO). *Skills development and migration: Policy brief*. Geneva. 2020.
6. Sharipov N. Kasbiy ta'lim tizimida xalqaro standartlarni joriy etishning dolzarb masalalari. *Pedagogika va psixologiya*. 2023. №2, 60-67-betlar.